

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARNING MULOQOTCHANLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH NAZARIY ASOSLARI*Boymurodova Sadoqat Istam qizi,**Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif kafedrasasi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.014>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar jamoasi bilan o'zaro muloqatga kirishishida namoyon bo'ladigan fazilatlari haqida nazariy fikrlar tahlil qilingan. Hozirda vatanimizning rivoj topishi kelajak avlod yoshlariga bog'liq ekan, kelajak avlodni kerakli bilimlar bilan qurollantirish albatta bo'lajak pedagoglarimiz qo'lidadir.

Kalit so'zlar: bilim, vatan ravnaqi, inson resurslari, inson kapitali, muloqatchanlik, bo'lajak pedagog.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАЦИОННЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ*Боймуродова Садоката Истам кизи,**Преподаватель кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические представления о качествах будущих учителей начальных классов в их взаимодействии с группой детей. В настоящее время развитие нашей страны зависит от молодежи будущего поколения, поэтому, безусловно, в руках наших будущих педагогов вооружить будущее поколение необходимыми знаниями.

Ключевые слова: знания, национальное развитие, человеческие ресурсы, человеческий капитал, коммуникация, будущий педагог.

THEORETICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS*Boymurodova Sadoqat Istam qizi,**Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the primary education department*

Abstract: This article analyzes the theoretical ideas about the qualities of future primary school teachers in their interaction with the children's group. Currently, the development of our country depends on the youth of the future generation, so it is certainly in the hands of our future pedagogues to equip the future generation with the necessary knowledge.

Key words: knowledge, national development, human resources, human capital, communication, future pedagogue.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan eng muhim vazifalardan kelajak avlodga ta'lif-tarbiya berish, yoshlarimizni vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiladigan kadr etib tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda har tomonlama xususan iqtisodiy soha, maishiy hamda, ayniqsa, ta'lif sohasida tobora ravnaq topib borayotgan davlatlar tizimiga nazar tashlasak, unda inson resurslarini va inson kapitalini rivojlantirishga e'tiborning kuchli ekanligini ko'ramiz. Juda katta mablag'larni ham inson kapitalini oshirishga yo'naltirish davlat siyosati darajasida amalga oshirilishi, albatta, tahsinga sazovar. Ayniqasa Finlyandiya, Janubiy Koreya hamda Singapur kabi davlatlar ta'lif tizimi fikrimizning yaqqol isboti bo'ladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada vatanimizda ham bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. "2022-2026-yillarga mo'ljalangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 4-yo'nalishi inson kapitalini rivojlantirish, 5-yo'nalishida ma'naviy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish ko'zda tutildi[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2018-yil 17-iyul kuni yig'ilishda ta'lif muassasalarini inson resurslarini rivojlantirish poydevori, yoshlarda bilim, dunyoqarash va ma'naviyat asoslarini shakllantiruvchi asosiy maskan ekanini ta'kidladi. Davlat rahbarining bunday masalani ilgari surishi barcha pedagog xodimlarga, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga bir qator burch va ma'suliyatlarni talab qiladi.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari odatda har kuni vaqtlarining ko‘p qismini bitta sinfda o‘tkazishadi va shu vaqt davomida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari odatda quyidagi vazifalarni bajaradilar:

O‘quvchilarga matematika, ona tili va o‘qish savodxonligi kabi fanlar va ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun dars rejalarini tuzish; o‘quvchilar jamoasida do‘stona ruhni shakllantirish va o‘rtoqlariga yaxshi munosabatda bo‘lishni o‘rganishlari uchun avvalambor o‘qituvchining o‘zi yaxshi xulq-atvor va muloqot qobiliyatları bilan namuna bo‘lishi; ota-onalar bilan bolaning rivojlanishi to‘g‘risida doimiy ravishda muloqot olib borish; o‘zlashtirishi past va qo‘srimcha yordam yoki yo‘l-yo‘riq talab qiladigan o‘quvchilarga alohida e’tibor berish; o‘quvchilarga davlat tomonidan talab qiladigan malaka va kompetensiyalarni shakllantirish; bolalarni sinfda va undan tashqarida, shu jumladan tanaffus, yig‘ilishlar va tushlik paytida nazorat qilishi; bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yangi pedagogik texnologiyalardan xabardor bo‘lishi, o‘z faoliyati davomida uni doimiy ravishda amaliyotga tadbiq etishi va yangi o‘qitish usullarini joriy etib boradilar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi samarali va foydali ta’lim berishi uchun zarur bo‘lgan quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, o‘qituvchi nafaqat bolalarga bilim berish balki, ma’muriyat va ota-onalar bilan muloqot qilishni talab qiladi. Umuman olganda, barcha o‘qituvchilar har qanday holatlarda tayyor va xotirjam bo‘lishlari kerak, chunki sinfda hech qanday kun bashorat qilinganidek o‘tmaydi. Shu sababli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan quyidagi fazilatlarni namoyon qilishni talab etadi:

Sabr-toqatli - bolalar bilan ishlash bolalar tushunadigan tarzda tushuntirishga tayyor bo‘lgan sabrli odamni talab qiladi. Shuningdek, turli qibiliyat va ehtiyojlarga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashni bilih kerak.

Topqir - sinfda o‘rganish darajasi turlicha bo‘lgan bolalar mavjud bo‘lganda, o‘qituvchi mavzuni tushuntirish yoki savolga javob berishning ko‘plab usullarini ishlab chiqishi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi darsni har kuni bir xil tarzda emas, har kunlik metodikalarni yangilab borishi uchun unga topqirlikning bo‘lishi juda muhim hisoblanadi.

Ijodkor - bolalarni darsga qiziqтирish qiyin bo‘lishi mumkin, shuning uchun o‘qituvchi ijodiylikka boy bo‘lishi maqsadga muvofiq. Dars rejasidan tortib, uy vazifalarigacha samarali va qiziqarli metodikalarni yaratish lozim.

Empatiya - boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘smirlik davrida juda ko‘p his-tuyg‘ular va tajribalarni boshdan kechiradilar. Muhokama va tadbirlarni rejalshtirish yoki ishtirok etishda ularning fikrini ham inobatga olish muhimdir.

Tashkilotchi - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi pedagogik qobiliyatlarining muhim tarkibiy qismidir. U sinf o‘quvchilarining o‘qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariiga, to‘garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o‘quvchiga faol vaziyatni ta’minlab berishida namoyon bo‘ladi.

Muloqotchan - pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘zkasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltiruvchi kuchdir[4;50].

Munozaralar va natijalar. Pedagogik muloqotchanlik - pedagogik ta’sir bilan chambarchas bog‘liq tushuncha. Bu pedagog hamda bilim oluvchining ta’lim-tarbiya jarayonidagi yetuk muomala madaniyati bo‘lib, unda o‘zaro axborot ayrboshlanadi va o‘quvchilarga o‘quv- tarbiyaviy ta’sir o‘tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o‘zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. L.M. Mitina pedagogik aloqani o‘qituvchi ishining ko‘p o‘lchovli makonining bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch qisman: o‘qituvchining shaxsiyati, pedagogik faoliyati va pedagogik aloqasidan iborat jihatlaridan biri deb hisoblaydi. Ushbu uch 135 yo‘nalish, talaba shaxsini rivojlanishning global vazifasi bilan birlashtirilgan [3:29]. Muloqot uslublarining rivojlanish istiqbollariga o‘zining hissasini qo‘sigan L.M. Mitina fikriga binoan bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘qituvchilik nazokati va mahorati bo‘lsa, ayniqsa, muloqotchanlik madaniyati yuqori darajada shakllangan bo‘lsa, darslar jarayonida yuzaga keladigan holatlarga nisbatan kreativ yondashish bo‘lsa murg‘ak qalb egalari bo‘lmish bolajonlar jamoasiga kirishish osonlashadi. Bu esa egallashi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirishi anchayin sezilarli holatda o‘sadi va samarali ta’limni shakllantiradi. A.A. Leontiyevning ta’rifidagi pedagogik muloqot “...o‘quvchining motivatsiyasi va ta’lim faoliyatining ijodiy xarakterini rivojlanish, o‘quvchining shaxsini to‘g‘ri

shakllantirish uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadigan o‘qituvchilar jamoasi o‘quv jarayonida maktab o‘quvchilari bilan aloqador. O‘rganish uchun qulay hissiy iqlimiň ta’minlaydi. Bolalar jamoasidagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqarishni ta’minlaydi va ta’lim jarayonida o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlaridan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi ”[2:20].

Xulosa. Demak, muloqot birgalikdagi harakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, fikr almashish, bir - biriga ta’sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o‘rtasida muomala o‘rnatish va rivojlantirish jarayoni ekan. Buni inobatga olib muoqot usullaridan oqilona foydalanish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

Fikrimizni xulosalar ekanmiz, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining muommala madaniyati hamda muloqatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini tanlash, uardan foydalana olish ko‘nikmalarini kelajakdagi kasbdagi faoliyatlarining professional egasi bo‘lishlari uchun zamin hozirlaydi hamda juda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3180 son Qarori.

2. Leontyev A.A. Pedagogik muloqot. M.; Nalchik, 1996 y.

3. Mitina L.M. “Mehnat psixologiyasi va o‘qituvchining malakasini oshirish”. M.: Akademiya, 2004.

4. A. Xoliquov. “Pedagogik mahorat” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011